



JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/ignr>

THE PROBLEM OF DESERTIFICATION IN THE NURATA MOUNTAINS AND WAYS TO OVERCOME IT

Dilafroz Yu. Karshiyeva

Master's student

Jizzakh State Pedagogical Institute

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Desertification, drought, ecological environment, Aktag, Nurata mountain, desertification hotspots.

Received: 13.05.22**Accepted:** 15.05.22**Published:** 17.05.22

Abstract: Desertification is one of the most pressing problems in the world. Therefore, the problem of desertification has been studied and analyzed on the example of Nurata mountain and foothill areas.

NUROTA TOG‘LARIDA CHO‘LLANISH MUAMMOSI VA UNING BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Dilafro‘z Yu. Qarshiyeva

Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika instituti

Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Cho‘llanish, qurg‘oqchilik, ekologik muhit, Oqtog‘, Nurota tog‘i, cho‘llanish o‘choqlari.

Annotatsiya: Cho‘llanish butun dunyoni qamrab olayotgan eng dolzarb muammo hisoblanadi. Shu boisdan ham Nurota tog‘ va tog‘ oldi hududlari misolida cho‘llanish muammosi o‘rganib va tahlil qilib chiqildi.

ПРОБЛЕМА ОПУСТЫНИВАНИЯ В НУРАТИНСКИХ ГОРАХ И ПУТИ ЕЕ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Дилафруз Ю. Каршиева

Магистрант

Джизакский государственный педагогический институт

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Опустынивание, засуха, экологическая среда, Актаг, гора Нурата, очаги опустынивания.

Аннотация: Опустынивание является одной из самых острых проблем в мире. Поэтому проблема опустынивания изучена и проанализирована на примере Нуратинских горных и предгорных районов.

KIRISH

Yer yuzida global miqyosda sodir bo'layotgan cho'llanish jarayonlari arid iqlimli O'rta Osiyo regionida ham keng o'rin olgan. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda cho'l va yarim cho'llar maydoni 70-80 % ni va salkam 10 mln ga yaqin aholi istiqomat qiladi.

Hozirgi kunda cho'llanish butun dunyoda eng dolzarb muammoga aylanmoqda. Shu boisdan ham BMT tomonidan 1994-yildan e'tiboran 17 iyun "Umumjahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish kuni" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Osiyo mintaqasida birinchilardan bo'lib, Konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlardan hisoblanadi. Yer maydonlarida qurg'oqchilik va cho'llanish muammosi bugungi kunda barcha xalqaro jamoatchilik, yer egalarining, ilmiy dargohlarning va siyosatshunoslarning doimiy diqqat e'tiborida. Qurg'oqchilik va cho'llanish butun insoniyatga itimoiy va iqtisodiy zarar keltirib, dunyo miqyosida ekologik tahdid xavf solmoqda. Jumladan, bugungi kunda O'zbekistonning 70 % yoki 31,4 mln gektar yeri qurg'oqchil maydonlardan iborat bo'lib, ular asosan tabiiy sho'rlangan ko'chma barxan qumliklar va issiq garimsel shamollari ta'siridagi hududlardan iborat. Orol dengizi suvi sathining qurishi tufayli yana 5 mln gektar maydonda "Orolqum cho'lini" vujudga keltirdi. Natijada, ushbu hududda ekologik muhit yomonlashib, cho'llanish jarayonlari yanada kuchaydi va ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Global iqlim o'zgarish sharoitida cho'llanish va qurg'oqchilik jarayonlari tabiiy ravishda tezlashar ekan, kelgusidagi barqaror rivojlanish hamda ekologik xavsizligi insoniyat ushbu jarayonga qarshi kurashishning innovatsion, kreativ yondashuvlarga uzviy bog'liq bo'lib qoladi. Qabul qilinayotgan qonun

qarorlar bajarilayotgan amaliy ishlar tadqiqoti cho'llanish muammolarini bartaraf etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda cho'llanish muommosi Nurota tog'larine ham chetlab o'tmagan. Nurota tog'larining faqat baland qismlaridagina uchraydigan archalar, o'tgan asrlarda o'rtacha balandlikdagi hududlarida ham qalin o'sgan. Bu tog'larning inson ta'siri kam bo'lgan joylarida hozir saqlanib qolgan archalar bundan dalolat beradi. Oqtog' (Nurota tizmasining g'arbiy chekka qismidagi tog' massivi) tizmasining g'arbida 1500-1600 m balandlikdagi Takalisoyning boshlanishida saqlanib qolgan archalardir. Nurota tog'larida archalarning borligini eshitib, 1969 yilda ilk bor ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va 500 dan ortiq archalar borligini aniqlagan. Archalar areali Nurota tizmasining eng g'arbiy chekkasi bo'lib, Qizilqum sahrosining ta'siri doimo sezilib turadi.

Nurota va Zarafshon tizmasining g'arbiy chekka qismidagi tog'larning (Qoratepa, Zirabuloq) iqlim xususiyatlari ana shu archa o'sib turgan Oqtog' sharoitidan farq qilmaydi. Tog'larda qishloqlar, katta sersuv soylar bo'yida qo'ralar, quduqlar atrofida cho'llanish o'choqlari hosil bo'lgan bo'lsa, bu hududlar atrofida yarim cho'llashgan joylar maydoni ham yildan-yilga kengaymoqda. Ba'zi cho'llashgan joylarda daraxt va butalar mutlaqo qirqilgan, mollar yuradigan izlar 15-20 % ni tashkil qiladi. O't qoplami siyraklashgan va tabiiy o'tlar o'rniga mollar yemaydigan begona o'tlar ko'paygan.

XULOSA

Hozirgi paytda Nurota tog'larini cho'llashgan maydonlari umumiy hududning 10-15 % ini tashkil qilgan bo'lsa, yarim cho'llashgan joylar 40-50 % ni egallaydi. Tog' hududlari tabiiy resurslardan foydalanish shu tariqa davom etsa, yana 15-20 yilda tog'laming 50 % ga yaqini cho'llashgan joylarga aylanish ehtimoli bor (A. Raxmatulaev, 2000). Tog'lar havo massalarini to'sib, ularni tarkibidagi namlikni yig'adigan asosiy hudud hisoblanadi. Bu namlikning bir qismi buloqlar ko'rinishida yer ustiga chiqsa, asosiy qismi tekislik yer osti suvini to'yintirib turadi. Tog'larda daraxtlar qancha ko'p bo'lib, o't qoplami qalin bo'lsa, yer osti suvi ham shuncha ko'payadi. Shuning uchun ham tog'larning landshaftlari tabiiy resurslaridan to'g'ri foydalanish va tabiatni muhofaza qilish hozirgi davrning dolzarb ekologik mummolaridan biri hisoblanadi. Shimoliy Nurota tog' oldi tekislik (Forish cho'llari) uchun eng muhim geoeologik muammosi, bu tekislik shimoliy qismining Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida suv sathining ko'tarilishi natijasida tuproqlarning sho'rlanish jarayoning kengayishiga olib kelmoqda. Natijada, Nurota tog'larining shimoliy hududida sho'rxoklar maydoni kengayib, yaylov o'simliklari o'rniga sho'ra tipidagi o'simliklar turi ko'payib bormoqda. Yaylov o'simliklar maydoni qisqarishi hisobiga "cho'llanish o'choqlari" paydo bo'lmoqda.

Nurota tog' va tog' oldi hududlarida cho'llanish jarayonini sekinlashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- yaylovlar sifatini yaxshilash maqsadida ko'p yillik shuvoq, iris kabi o'simliklarni ekish;
- yaylovlar hosildorligidan foydalanuvchi chorva mollari sonini keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozimdir;
- sug'oriladigan yerlarni vujudga keltirish, yaylovlarni organik va mineral o'g'itlar bilan ishlov berish masalasini hal qilish;
- tog'larning yuqori qismida nisbiy namlikni saqlab qolish maqsadida daraxt va butalar, yani, archa, pista, tok, olma daraxtlarini ekish orqali hamda yaylovlar hosildorligini oshirishga erishish lozim;
- tog' etaklaridagi tekisliklarda ixota daraxtzorlari ko'paytirish;
- yer osti suvlaridan oqilona foydalanishda belgilangan limitlarga ro'ya qilish;
- archalarni saqlab qolish maqsadida qo'riqxonalar tashkil qilishning juda katta ilmiy va amaliy ahamiyati mavjud. Ilmiy ahamiyati shundaki, bu archalar bir vaqtlar Nurota tog'larida keng tarqalganligini bildiruvchi indikator vazifasini bajaradi. Yana bir ilmiy ahamiyati shundaki, quruq va issiq iqlim sharoitida archalar o'sishi mumkinligini isbotlovchi faktidir. Archalar saqlanishining amaliy ahamiyati esa Nurota tog'larida o'rmonlar holatini yaxshilashga yordam beradi. Nafaqat archa shu bilan birga, Nurota tog'larida pista ham o'sadi. Lekin bu qurg'oqchilikka chidamli daraxt ham yo'qolish arafasida. Aholining ko'payishi bilan chorva mollari soni ham ortib bormoqda. Aholi o'z chorvalarini tog' yaylovlariga boqishadi. Chorva mollariing uzluksiz boqilishidan tog'larning o'simlik dunyosi ham yildan-yilga kamayishiga sabab bo'lmoqda. Daraxt butalarning kamayishi, o'simliklarning siyraklashishidan tuproqlar yuvilishi kuchaymoqda. Bularning oqibatida buloq va soy suvlari ham kamayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Природные условия и ресурсы Джизакской области. «O'zbekiston», 1978 y
2. Alibekov L.A. – Landshaftlarni muhofaza qilish. –T., «Fan», 1985 y
3. Hakimov Q.M., G'ozdalov M.R. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax, «Sangzor» 2006 y
4. G'ozdalov M.R., Yaxshiboyeva F. Suv resurslaridan rasional foydalanish (Zomin tumani misolida). –T., 2010 y
5. G'ozdalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish. Muammo va yechimlar. Monografiya. «Ziyo nashr-matba» 2021 y
6. Gudalov M.R., Janizakov I.S., Janizaqova G.M., Ways to develop Ecotourism in The Molguzar Mountains. The American Journal of applied Science. 2020, 11/10.